

**“O‘zmetkombinat” AJ  
Kuzatuv kengashining qarori bilan  
“TASDIQLANGAN”  
(2024-yil 10-oktyabr 13-sonli bayonnomma)**

**KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH BO‘YICHA  
“O‘ZMETKOMBINAT” AJ SIYOSATI**

## **I. UMUMIY QOIDALAR**

**1.1.** Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha “O‘zmetkombinat” AJ (keyingi o‘rinlarda – Jamiyat) Siyosati (keyingi o‘rinlarda – Siyosat) O‘zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga, umum e’tirof etilgan xalqaro normativ-huquqiy hujjatlarga va Jamiatning ichki (mahalliy) me’yoriy hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan.

**1.2.** Ushbu Siyosat quyidagilarni belgilaydi:

- korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi maqsad va vazifalar;

- korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy tamoyillari;

- O‘zbekiston Respublikasining amaldagi korrupsiyaga qarshi qonun hujjatlari talablari va uni ijro etish majburiyatlari;

- korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyat yo‘nalishlari;

- Siyosatga rioya qilish uchun javobgarlik.

**1.3.** Siyosat Jamiat faoliyatida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning oldini olish va ularga barham berishga qaratilgan o‘zaro bog‘liq tamoyillar, tartib-taomillar va aniq chora-tadbirlar majmui.

**1.4.** Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ushbu Siyosat Jamiat Rahbariyatining korporativ madaniyatni takomillashtirish, korporativ boshqaruvning eng yaxshi amaliyotlariga amal qilish va Jamiatning ishbilarmonlik obro‘sini munosib darajada ushlab turish maqsadida ochiq va halol biznes yuritishning yuqori axloqiy me’yorlariga sodiqligini aks ettiradi.

**1.5.** Jamiatning korrupsiyaga oid faoliyatga aloqadorligi tegishli javobgarlikka olib kelishi, shuningdek, Jamiat faoliyati va obro‘siga zarar yetkazishi mumkin. Ushbu Siyosatni qabul qilish va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish Jamiat faoliyatining qonuniyligi, shaffofligi va barcha manfaatdor tomonlar uchun ochiqligini ta’minalashga yordam beradi.

**1.6.** Ushbu Siyosat Jamiatning boshqa ichki (mahalliy) me’yoriy hujjatlari, xususan, “O‘zmetkombinat” AJ xodimlari uchun ichki mehnat tartibi qoidalari, korporativ boshqaruva Kodeksi, biznes etikasi Kodeksi bilan birgalikda ko‘rib chiqilishi kerak.

## **II. SIYOSATNI QO‘LLASH SUBYEKTLARI SOHASI VA DOIRASI**

**2.1.** Ushbu Siyosat, Jamiatning barcha xodimlari, ularning lavozim mavqeidan qat’iy nazar tanishishlari va ularga qat’iy rioya qilishlari uchun majburiydir. Siyosat ochiq hujjat bo‘lib, u Jamiatning rasmiy veb-saytida joylashtiriladi.

**2.2.** Ushbu Siyosat Jamiat, uning xodimlari, tarkibiy bo‘linmalari va Jamiatning biznes sheriklarini, shu jumladan, ular bilan cheklanmagan holda:

- Jamiat xodimlari va boshqaruv organlari a’zolariga;

- Jamiat ta’sischisi bo‘lgan tashkiliy-huquqiy shaklidan qat’iy nazar, Jamiatlarga;

- Jamiat kontragentlari, shu jumladan yetkazib beruvchlar, agentlar, vositachilar, maslahatchilar, vakillar va tegishli majburiyatlar ular bilan tuzilgan shartnomalarda belgilangan yoki amaldagi korrupsiyaga qarshi qonun hujjatlaridan bevosita kelib chiqadigan hollarda boshqa shaxslarga amal qiladi.

**2.3.** Ushbu Siyosat amaldagi korrupsiyaga qarshi qonun hujjatlarida belgilangan

huquqiy normalarni o‘zgartirmaydi.

**2.4.** Ushbu Siyosat va boshqa amaldagi siyosat va tartib-taomillar korrupsiyaiga qarshi kurashish sohasida bajarilishi majbur bo‘lgan minimal standartlarni belgilaydi va shu bilan ushbu sohadagi xavflarni boshqarish bo‘yicha ishlarning izchilligini ta’minlaydi. Agar O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida qat’iyroq talablar belgilangan bo‘lsa, bunday talablarga rioya qilish zarur.

**2.5.** Shartnomalar tuzishda Jamiyat o‘z biznes sheriklarini ushbu Siyosat talablarini bajarish uchun qo‘shilishni taklif qiladi, kontragentlar ularning mazmuni va talablari bilan Jamiatning Internetdagи rasmiy veb-saytida tanishishlari mumkin.

### **III. ATAMALAR VA TA’RIFLAR**

Ushbu Siyosatda foydalanilgan atamalar va ta’riflar quyidagi ma’nolarga ega:

**korrupsiyaiga qarshi komplayens tizimi** – bu korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashishga qaratilgan o‘zaro bog‘liq siyosatlar, tartib-taomillar, standartlar, shuningdek mexanizmlar va chora-tadbirlar tizimidir;

**davlat fuqarolik xizmatchisi** – davlat fuqarolik xizmati lavozimlarida o‘z faoliyatini amalga oshirayotgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi. O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi davlat fuqarolik xizmati lavozimiga tayinlangan paytdan e’tiboran davlat fuqarolik xizmatchisining huquqiy maqomiga ega bo‘ladi va davlat fuqarolik xizmatchisining faoliyati tugatilishi munosabati bilan uni yo‘qotadi;

**bisnes hamkor** – Jamiat bilan shartnomaviy munosabatlarga kirgan, yoki kirish niyatida bo‘lgan, yoki qo‘shma faoliyat va shartnoma (lar) tuzish bo‘yicha muzokaralar olib boradigan yuridik yoki jismoniy shaxs (biznes sherikga misol sifatida kontragent, yetkazib beruvchi, distribyutor, diler yoki Jamiat nomidan va topshirig‘i bo‘yicha yoki manfaatlarini ko‘zlab harakat qilish huquqiga ega bo‘lgan boshqa uchinchi shaxs bo‘lishi mumkin);

**mansabdar shaxs** – doimiy yoki vaqtincha yoki maxsus hokimiyat tomonidan tayinlangan yoki saylangan, hokimiyat vakili vazifasini bajaruvchi yoxud davlat organlarida, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarida, korxonalarda, muassasalarda, tashkilotlarda tashkiliy-ma’muriy yoki ma’muriy-xo‘jalik funksiyalarini bajaruvchi shaxs, mulkchilik shaklidan qat’iy nazar va yuridik ahamiyatga ega harakatlarni amalga oshirishga vakolatli, shuningdek, ushbu funksiyalarini xalqaro tashkilotda yoki xorijiy davlatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, ma’muriy yoki sud organida amalga oshiruvchi shaxs;

**Jamiyat biznes etikasi Kodeksi** – korporativ madaniyatni rivojlantirish va Jamiat obro‘sini mustahkamlashga qaratilgan qadriyatlar, odob-axloqining asosiy tamoyillari va standartlarini belgilaydigan jamiyatning ichki (mahalliy) me’yoriy hujjati;

**Jamiyatning korporativ boshqaruv kodeksi** – Jamiat boshqaruv organlari, aksiyadorlar, mehnat jamoasi vakillari va boshqa manfaatdor tomonlar o‘rtasidagi munosabatlarning asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha qoidalar, tamoyillar va tavsiyalar to‘plami;

**manfaatlar to‘qnashuvi** – shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik shaxsnинг mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta’sir ko‘rsatayotgan yoxud ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan

fuqarolarning, tashkilotlarning, Jamiatning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o‘rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan vaziyat;

**kontragent** – shartnomalar munosabatlari asosida Jamiat bilan xo‘jalik (iqtisodiy) munosabatlarga kirgan shaxs (yuridik va jismoniy, Jamiat xodimlari bundan mustasno);

**korrupsiya** – shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeyidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, shuningdek, bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etishi;

**korrupsiyaga oid huquqbazarlik** – korrupsiya alomatlariga ega bo‘lgan, sodir etilganligi uchun qonunchilikda javobgarlik nazarda tutilgan qilmish;

**korrupsiyaviy xavflar** – bu, agar u amalga oshirilsa, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida Jamiatning amaldagi qonunchiligi va/ yoki ichki me’yoriy hujjatlari buzilishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan potentsial hodisa;

#### **“korrupsiyaga nisbatan murosasizlik” («нулевая толерантность»)**

- korrupsiyani Jamiat mansabdor shaxslari va xodimlari o‘rtasida namoyon bo‘lish shakllari va usullaridan qat‘i nazar, uni butunlay rad etish madaniyatini tasdiqlash.

#### **korrupsiyaga qarshi qo‘llaniladigan qonunchilik:**

- O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi 1994-yil 22-sentyabr’;
- O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘RQ-419-son Qonuni;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etish bo‘yicha qo‘srimcha chora – tadbirlar to‘g‘risida” gi 2021-yil 6-iyuldaggi PQ-5177-son qarori;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabat muhitini shakllantirish, davlat va Jamiat boshqaruvida korrupsiya omillarini tubdan qisqartirish, shuningdek, bu jarayonga jamoatchilikni keng jalb etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2021-yil 6-iyuldaggi PF-6257-son farmoni;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2020-yil 29-iyundagi PF-6013-son farmoni;

• Qonunchilik palatasining, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining “Korrupsiyaga qarshi kurashish ustidan parlament nazorati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2019-yil 30-sentabrdagi 2782-III-son qo‘sma qarori;

• O‘zbekiston Respublikasining “Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi (Nyu-York, 2003-yil 31-oktyabr) O‘zbekiston Respublikasining qo‘silishi to‘g‘risida” gi 2008-yil 7-iyuldaggi O‘RQ-158-son Qonuni;

• Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Birlashgan Qirolligining “Poraxo‘rlikka qarshi kurash to‘g‘risida” gi 2010-yildagi Qonuni (UK Bribery Act, 2010);

• AQShning 1977-yildagi “Chet - elda korrupsiyaga qarshi kurash to‘g‘risida” gi Qonuni (Foreign Corrupt Practices Act, 1977);

- Iqtisodiy hamkorlik va hamkorlik tashkilotining xalqaro biznes jarayonlarida xorijiy

davlat amaldorlarining poraxo‘rligiga qarshi kurash to‘g‘risidagi konvensiyasi (1997-yil 21-noyabrda qabul qilingan) yoki Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi Konvensiyasi (2003-yil 31-oktyabrda Nyu-Yorkda BMT Bosh Assambleyasining 51-yalpi sessiyasida 58/4 rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan);

- Poraxo‘rlik va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha Jamiyat mavjud bo‘lgan mamlakatlarning boshqa har qanday amaldagi qonunchiligi;

**korrupsiyaga qarshi kurash** – korrupsiyaning oldini olish, shu jumladan Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish madaniyatni shakllantirish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etilishiga sabab bo‘layotgan shart-sharoitlarni aniqlash va bartaraf etish, shuningdek korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni aniqlash, oshkor qilish va tergov qilish hamda ularning oqibatlarini bartaraf etish bo‘yicha Jamiyat vakolatlari doirasidagi faoliyat;

**korrupsiyaning oldini olish** – korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etilishiga yordam beradigan sabablar va shart-sharoitlarni o‘rganish, aniqlash, cheklash va bartaraf etishga qaratilgan Jamiyatning profilaktika chora-tadbirlarining kompleks tizimini ishlab chiqish va amalga oshirishga qaratilgan faoliyati;

**xodimlar** – Jamiyat rahbari va uning o‘rinbosarlari, tarkibiy bo‘linmalari rahbarlari (boshliqlari) va Jamiyatning boshqa xodimlari.

**ishchilar** – Jamiyat bilan mehnat munosabatlarida bo‘lgan shaxslar.

Ushbu Siyosatda qo‘llaniladigan, ammo oshkor etilmagan ta’riflar O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida, shuningdek, biznes etikasi va korporativ boshqaruva Kodekslarida, Jamiyatning boshqa ichki (mahalliy) me’yoriy hujjatlarida qo‘llaniladigan ta’riflarga mos keladi.

#### **IV. KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH SOHASIDAGI MAQSAD VA VAZIFALAR**

##### **4.1.** Ushbu Siyosatning maqsadlari:

korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etishga yordam beradigan sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash, o‘rganish, cheklash va bartaraf etish bo‘yicha chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish va amalga oshirish;

Jamiyat, uning mansabdor shaxslari va xodimlarining odob-axloqi yuqori standartlarga sodiqligi bilan ajralib turadigan korrupsiyaga qarshi madaniyatni shakllantirish orqali biznes obro‘sini mustahkamlash va Jamiyatga ishonchni oshirish;

Jamiyat mansabdor shaxslari va xodimlarini egallab turgan lavozimidan qat’iy nazar korrupsiya faoliyat bilan shug‘ullanish xavfini minimallashtirish;

Jamiyatda ISO 37001:2016 xalqaro standartlariga muvofiq Korrupsiyaga qarshi kurashish menejmenti tizimini ishlab chiqish, joriy qilish va ishchi holatda saqlash;

Jamiyatda ISO 37001:2016 xalqaro standartlariga muvofiq Korrupsiyaga qarshi kurashish menejmenti tizimi talablarini izchil o‘rgangan holda bajarilishini ta’minlash.

##### **4.2.** Belgilangan maqsadga erishish uchun Siyosat quyidagi vazifalarni hal qilishni nazarda tutadi:

- 1) Jamiyatning mansabdor shaxslari va xodimlari o‘rtasida korrupsiyaning har qanday ko‘rinishlariga mutlaqo toqat qilmaslikni shakllantirish;

2) O‘zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining Jamiyatga, mansabdor shaxslari va xodimlarga nisbatan qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan asosiy talablarini umumlashtirish va tushuntirish;

3) Jamiyatning mansabdor shaxslari va xodimlarining amaldagi korrupsiyaga qarshi Qonunchilik, Siyosat tamoyillari va talablarini bilish va ularga rioya qilish, shuningdek korrupsiyani ogohlantirish va oldini olish bo‘yicha tegishli tartib-qoidalarni amalga oshirish majburiyatini belgilash;

4) korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar oqibatlarini minimallashtirish va (yoki) bartaraf etishga qaratilgan korrupsiyaga qarshi choralarni ishlab chiqish va amalga oshirish.

## **V. KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHNING ASOSIY TAMOYILLARI**

Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

1) **“korrupsiyaga nisbatan murosasizlik” («нулевая толерантность»)** korrupsiyaning har qanday namoyon bo‘lishiga – Jamiat o‘z faoliyatini amalga oshirishda har qanday shakl va ko‘rinishda korrupsiyani to‘liq rad etish tamoyiliga amal qiladi. Korrupsiyaning har qanday namoyon bo‘lishiga nisbatan “nolinchi darajada bag‘rikenglik” tamoyili Jamiat nomidan yoki uning manfaatlari yo‘lida, bevosita yoki bilvosita, shaxsan yoki har qanday vositachilik yo‘li bilan faoliyat yuritadigan mansabdor shaxslar va xodimlar uchun korrupsiya harakatlarida ishtirok etishni qat’iy taqiqlashini anglatadi;

2) **yuqori rahbariyatning korrupsiya ko‘rinishlariga murosasiz munosabatda bo‘lish majburiyati** – Jamiat Kuzatuv kengashi va Boshqaruvi korrupsiyaga nisbatan murosasizlik madaniyatini shakllantirish va korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish tizimini yaratishda muhim rol o‘ynaydi. Jamiat Kuzatuv kengashi va Boshqaruvi a’zolari korrupsiyaning har qanday ko‘rinishiga va barcha darajadagi murosasiz munosabatda bo‘lishlari, shaxsiy namunasi bilan ushbu tamoyilni namoyish etishlari, rioya qilishlari va amalga oshirishlari shart;

3) **ishchilarни jalb qilish** – Jamiat o‘z mansabdor shaxslari va xodimlarini amaldagi korrupsiyaga qarshi qonun hujjatlari qoidalari to‘g‘risida xabardor qiladi va ularning korrupsiyaga qarshi standartlar va tartib-taomillarini shakllantirish va amalga oshirishda faol ishtirok etishini mammuniyat bilan qabul qiladi;

4) **jazoning muqarrarligi** – Jamiat ishchilari o‘z xizmat vazifalarini bajarish chog‘ida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga yo‘l qo‘ygan taqdirda va korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatini bajarmagan taqdirda egallab turgan lavozimidan, ish stajidan va boshqa shartlardan qat’iy nazar, jazolanishi muqarrarligini e’lon qiladi;

5) **korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligi** – Jamiat tartib-taomillarni imkon boricha shaffof, tushunarli, bajarish mumkin bo‘lgan, ularni amalga oshirish qulayligi va muhim natijaga erishishni ta’minalashga intiladi;

6) **lozim darajada ehtiyotkorlik** – Jamiat biznes/mehnat munosabatlarini boshlash yoki davom ettirish to‘g‘risida qaror qabul qilishdan oldin uchinchi shaxslar va ishga nomzodlarni ishonchliligi, korrupsiyani rad etishi va manfaatlar to‘qnashuvi yo‘qligi uchun

tekshiradi;

**7) birgalikda harakat qilish va muvofiqlashtirish** – Jamiyat korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat organlari va Jamiyatniing uchinchi shaxslari bilan birgalikda harakat qilish va hamkorlikni, shuningdek korrupsiyaga qarshi kurashish jarayonida harakatlarni muvofiqlashtirishni ta'minlaydi;

**8) Jamiyat** - Davlat, Jamiatlar va kontragentlar bilan o'zaro munosabatlarda qonuniylik, shaxsning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi, ochiqlik va oshkoraliq, izchillik, davlat va fuqarolik Jamiyati o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, korrupsiyaning oldini olish choralarining ustuvorligi, javobgarlikning muqarrarligi tamoyillariga amal qiladi.

**9) Maxfiylik va javob choralarini rad etish tamoyili** - Jamiyat poraxo'rlikdan yoki amaldagi korrupsiyaga qarshi qonun hujjatlari yoxud mazkur Siyosatning talablarini buzadigan boshqa harakatlardan bosh tortgan xodimlarga nisbatan hech qanday sanksiyalar, shu jumladan, ishdan bo'shatish, lavozimini pasaytirish, ish haqidan mahrum etish, kamsitish, siquvga olish, ta'qib qilish choralari qo'llanilmasligini kafolatlaydi, hatto bunday rad etish natijasida Jamiyat tijorat va / yoki raqobatbardosh ustunliklarga ega bo'lмаган taqdirda va / yoki zarar ko'rgan bo'lsa ham.

Shuningdek, Jamiatning boshqa xodimi tomonidan korrupsiyaviy harakatlar yoki ushbu Siyosatning tamoyillari va talablarining buzilish ehtimoli to'g'risida vijdonan xabar bergen hodimlarga nisbatan har qanday javob choralari ko'rishi mumkin emas, deb hisoblaydi va Qonunchilika va Jamiatda belgilangan tartibda moddiy rag'batlantirilidalar.

Jamiyat ruxsat etilgan aloqa kanallari orqali qoida buzilishlar to'g'risidagi olingan xabar maxfiyligini va himoyasini ta'minlaydi.

**10) Korrupsiyaga qarshi kurashish uchun mas'ul shaxslar va bo'linmalar** - Korrupsiyaga qarshi samarali tizimni yaratish uchun Jamiatda Komplayens xizmati tashkil etiladi.

Komplayens xizmati Kuzatuv kengashiga bo'ysunadi.

Komplayens xizmati xodimlari zarur tajriba va malakaga ega, Jamiatning korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini tadbiq etish va takomillashtirishda, o'z vazifalarini amalga oshirishda yetarli darajada mustaqillikka, vakolatlarga va muhim resurslarga ega.

Jamiatda ISO 37001:2016 xalqaro standartlariga muvofiq Korripsiya qarshi kurashish menejmenti tizimini ishlab chiqish, joriy qilish va ishchi holatda saqlab turish Komplayens xizmatiga yuklatilgan.

Komplayens xizmati, shu jumladan, quyidagi vazifalarni bajaradi:

- Jamiatdagagi korrupsiyaviy harakatlarning oldini olish va ularga qarshi kurashish;
- korrupsiyaviy xatarlarni baholash natijalarini tashkil etish, muvofiqlashtirish va umumlashtirish;

- korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha Jamianing ichki me'yoriy hujjatlariga o'zgartirishlar kiritish bo'yicha siyosati, tartib-taomillari, uslubiy tavsiyalari, takliflarini ishlab chiqish va takomillashtirish;

- xodimlarni korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'quv dasturlarini ishlab chiqish va to'g'ridan-to'g'ri o'qitish;

- korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha xodimlarga maslahat berish;
- korrupsiya harakatlarini tekshirishda ishtirok etish, shu jumladan, xodimlarni sodir etilgan huquqbuzarliklar uchun javobgarlikka tortish masalalarini ko'rib chiqishda;
- Jamiyatda korrupsiyaga qarshi choralar va tartib-taomillarning bajarilishini nazorat qilish;
- Jamiyatda mavjud korrupsiyaga qarshi choralar va tartib-taomillarning yetarliligi, mutanosibligi va dolzarbligini baholash, shuningdek, ularni takomillashtirish choralarini ko'rish;
- Jamiyatning Kuzatuv kengashi va Yuqori rahbariyat uchun Jamiyatdagi korrupsiyaga qarshi kurash tizimining holati to'g'risida muntazam ravishda hisobotlarni tuzish;
- qonun hujjatlarida va Jamiyatning ichki qoidalarida belgilangan boshqa vakolatlar.

Jamiyatda korrupsiyaga qarshi samarali tizimni shakllantirishda Komplayens xizmatidan tashqari boshqa xodimlar va bo'limlar ham ishtirok etadilar. Korrupsiyaga qarshi choralarни amalga oshirish uchun mas'ul xodimlar va bo'linmalarning vazifalari Jamiyatning ichki me'yoriy hujjatlarida mustahkamlangan.

**11) Korrupsiyaga qarshi harakat tizimini doimiy takomillashtirish tamoyili** - Jamiyat korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining samaradorligini to'xtovsiz ravishda oshirishni takomillashtirishga alohida e'tibor qaratadi.

Jamiyat o'z xodimlarini Jamiyatning korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar va choralarini taklif qilishga da'vat qiladi.

## **VI. AMALDAGI KORRUPSIYAGA QARSHI QONUNCHILIK TALABLARI VA UNI LJRO ETISH MAJBURIYATI**

**6.1.** Jamiyat, uning mansabdar shaxslari va xodimlari amaldagi korrupsiyaga qarshi Qonunchilik me'yorlariga, shuningdek ushbu Siyosat tamoyillari va talablariga rioya qilishlari shart. Siyosatni amalga oshirishda Jamiyat uning mansabdar shaxslari va xodimlariga bevosita yoki bilvosita, shaxsan yoki uchinchi shaxslar orqali korrupsiya harakatlarida ishtirok etish taqiqlanganligi, shuningdek:

- ✓ pora taklif qilish, va'da qilish yoki amalga oshirish, ya'ni har qanday shaxsni o'z xizmat vazifalarini noto'g'ri bajarishga undash maqsadida har qanday moliyaviy yoki boshqa foyda / afzallik berish yoki berishni va'da qilish;
- ✓ pora talab qilish, qabul qilish yoki qabul qilishga rozilik berish, ya'ni o'z vazifalarini noto'g'ri bajargani uchun har qanday moliyaviy yoki boshqa foyda / afzallik olishga rozilik olish yoki qabul qilish;
- ✓ belgilangan tartib-taomillarni tezlashtirish yoki soddallashtirish uchun davlat vazifalarini bajarishga vakolatli shaxslarga, shuningdek ularga tenglashtirilgan shaxslarga sovg'alarni taklif qilish, va'da qilish yoki to'lovlarni amalga oshirish, amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno;
- ✓ to'lovlar belgilangan tartib-taomillarni tezlashtirish yoki soddallashtirish uchun ishlatalishi mumkinligiga shubha tug'ilgan hollarda uchinchi shaxslarga to'lovlarni taklif qilish, va'da qilish yoki amalga oshirish;

✓ shaxsiy manfaat evaziga Jamiyatda ishga joylashishni (shu jumladan, vaqtinchalik asosda) taklif qilish, va'da qilish yoki taqdim etish;

✓ amaldagi korrupsiyaga qarshi qonun hujjatlari talablariga va Jamiyatning ichki hujjatlariga zid bo'lgan sovg'alar yoki mehmondo'stlik belgilarini berish yoki olish.

**6.2.** Jamiyatning mansabdor shaxslari o'zlarining kasbiy faoliyatida quyidagi odob-axloq standartlariga qat'iy rioya qilishlari kerak:

- O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va ushbu Siyosat talablariga rioya qilish;

- biznes munosabatlarida aniq bo'lish, lavozim vazifalarini bajarishning har qandayadolatsiz usullaridan voz kechish;

- Jamiyatni obro'sizlantirishi mumkin bo'lgan xatti-harakatlarning oldini olish;

- Jamiyatning rasmiy mavqeい va maxfiy ma'lumotlari, moddiy va nomoddiy aktivlaridan shaxsiy maqsadlarda foydalanmaslik;

- noqonuniy xatti-harakatlar yoki ularning qonuniyligi va axloqiyligi to'g'risida shubha tug'dirishi mumkin bo'lgan xatti-harakatlarning oldini olish;

- hamkasblardan korrupsiyaga qarshi yuqori huquqiy madaniyatga rioya qilishni qo'llab-quvvatlash va talab qilish;

- tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromad olish bilan bog'liq boshqa faoliyatni amalga oshirishda kimgadir yordam berishdan bosh tortish;

- boshqa ishchilarni korrupsiyaga oid huquqbazarliklarni sodir etishga ko'ndirmaslik va bunday harakatlarni rag'batlantirmaslik;

- manfaatlar to'qnashuvi mavjud bo'lganda xizmat vazifalarini bajarmaslik.

**6.3.** Jamiyat xodimlari quyidagilarga majburdirlar:

- 1) korrupsiyaga oid huquqbazarliklarni sodir etish va (yoki) ishtirok etishdan bosh tortish;

- 2) korrupsiyaga oid huquqbazarlikni sodir etishga yoki uni sodir etishda ishtirok etishga tayyorlik sifatida talqin qilinishi mumkin bo'lgan xatti-harakatlardan voz kechish;

- 3) xodimning manfaatlar to'qnashuvi ehtimoli yoki yuzaga kelishi mumkinligi to'g'risida bevosita rahbarga xabar berish.

Agar o'z harakatlarining to'g'rilinga yoki boshqa odob-axloq me'yorlariga nisbatan shubha tug'ilsa, Jamiyatning mansabdor shaxslari va xodimlari Jamiyatning yuqori rahbariyatiga murojaat qilishlari mumkin.

## VII. KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH FAOLIYATI YO'NALISHLARI

**7.1.** Jamiyat faoliyatining ayrim yo'nalishlari korrupsiya xavfiga eng ko'p ta'sir qiladi. Bunday yo'nalishlar, xususan, quyidagilarni o'z ichiga oladi, lekin ular bilan cheklanmaydi:

### **7.1.1. Biznes sovg'alari va vakillik xarajatlari:**

Jamiyat biznes sovg'alari va mehmondo'stlik xarajatlarini, shu jumladan biznes mehmondo'stligini ayriboshlashni biznes yuritishning zaruriy qismi va umumiyy biznes amaliyoti sifatida tan oladi. Jamiyat biznes sovg'alari va mehmondo'stlik xarajatlari bo'yicha halollik va shaffoflik muhitini rag'batlantiradi.

Shu bilan birga, sovg'alar berish, vakillik xarajatlarini to'lash va biznes mehmondo'stligining boshqa shakllari noqonuniy ta'sir ko'rsatish uchun xudbin

maqsadlarda ishlatalishi mumkin, bu esa Jamiyat va uning xodimlari uchun Siyosat, tartib-qoidalar va talablarga rioya qilmaslik xavfini tug‘dirishi mumkin. Jamiyatning barcha qarorlari obyektiv bo‘lishi va noqonuniy ta’sirga duchor bo‘lmasligi kerak.

Hamkorlardan biznes sovg‘alarini O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan qiymat chegaralarida qabul qilishga yo‘l qo‘yiladi.

Biznes sovg‘alarini almashish va vakillik xarajatlarini amalga oshirish, shu jumladan uchinchi shaxslar bilan Jamiyatning biznes mehmondo‘sligi quyidagi mezonlarga javob berishi kerak:

- O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi me’yorlariga, Jamiyatning vakillik xarajatlari to‘g‘risidagi ichki hujjatlariga to‘liq mos kelishi;

- oqilona asosli, mutanosib bo‘lishi, naqd yoki naqd bo‘lmagan pul, qimmatli qog‘ozlar, qimmatbaho metallar bo‘lmasligi va boshqa turdagি yoki naqd pul ekvivalentlarini ifodalamasligi va hashamatli buyum bo‘lmasligi;

- xizmat, harakat, harakatsizlik, kelishuv, homiylik, huquqlarni berish, bitim, shartnoma, litsenziya, ruxsatnoma va hokazolar bo‘yicha muayyan qaror qabul qilish uchun yashirin mukofotni ifodalamasligi yoki boshqa noqonuniy, axloqsiz maqsadlarda oluvchiga ta’sir o‘tkazmasligi;

- Jamiyat, uning mansabdor shaxslari va xodimlarining biznes obro‘sini yo‘qotishiga olib keladigan xavf-xatar tug‘dirmasligi.

**7.1.2.** Jamiyat tomonidan amalga oshirilgan xaridlarning har qanday potensial ishtirokchisidan sovg‘alar va mehmondo‘slik belgilarini qabul qilish taqiqlanadi. Agar biznes yoki tadbirning sovg‘asi ushbu Siyosat talablari muvofiqligiga shubha tug‘ilsa, Jamiyatning mansabdor shaxsi yoki xodimi Jamiyatning bevosita yuqori lavozimli rahbariga murojaat qilishi kerak.

## ***7.2. Xarid qilish faoliyati***

Jamiyat xarid qilish tartib-qoidalarini iloji boricha shaffof va tushunarli qilishga intiladi. Xaridlar faoliyatini amalga oshirish jarayonida korrupsiyaga oid xavflarni bartaraf etish maqsadida Jamiyat xaridlar byudjetini talab qilinadigan nomenklaturaga, sifat va miqdorga muvofiqligini, ehtiyojlar va muddatlarni hisobga olgan holda, shuningdek, qonun hujjatlari bilan tasdiqlangan xarid tartib-qoidalariga rioya etilishini tekshiradi.

### **7.2.1. Jamiyat xaridlarning korrupsiyaga qarshi monitoringini olib boradi:**

xaridlar jarayonida affillangan ishtirokchilarning / manfaatlar to‘qnashuvining mavjudligi;

xarid shartnomalarini bajarmaslik, sifatsiz bajarish;

vijdonsiz yetkazib beruvchini tanlash;

tijorat kelishuvini qayta ishslash, hisobga olish va rasmiy lashtirishdagi xatolar;

yetkazib berishni amalga oshirishda noto‘g‘ri logistika;

davlat organlari tomonidan soliq, ma’muriy va boshqa da’volar/jarimalar;

xaridlar va tuzilgan shartnomalar bajarilishi to‘g‘risida to‘liq, o‘z vaqtida va ishonchli ma’lumotlarni taqdim etish.

**7.2.2.** Jamiyat sotib olish jarayonining samaradorligini tahlil qiladi va Jamiyatning ichki hujjatlariga muvofiq sotib olish jarayonini muntazam ravishda nazorat qiladi.

### **7.3. Xodimlarni boshqarish**

**7.3.1.** Jamiyat kadrlar to‘g‘risida qaror qabul qilishda xolislik va halollik tamoyillariga amal qiladi. Xodimlarni yollash, baholash, ilgari surish va ishdan bo‘shatishda korrupsiya xavfini bartaraf etish maqsadida, Jamiyat:

- xodimlarni tanlash va yollashning shaffof tartib-qoidalarini va lavozimga tegishli malaka talablarini belgilangan tartibda ishlab chiqadi va tasdiqlaydi;
- mehnat munosabatlarini boshlash yoki davom ettirish to‘g‘risida qaror qabul qilishdan avval ishga joylashayotgan nomzodlarni ishonchliligi va manfaatlar to‘qnashuvi yo‘qligi uchun tekshiradi;
- xodimlarning faoliyatini baholaydi va ularning asosiy faoliyat ko‘rsatkichlari va kasbiy yutuqlari samaradorligi asosida mukofotlaydi;
- xodimning ishbilarmonlik fazilatlari va malakasi asosida yuqori lavozimga ko‘tarilish to‘g‘risida qaror qabul qiladi;
- O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan asoslar bo‘yicha xodim bilan mehnat munosabatlarini tugatish tartibini amalgalash oshiradi.

**7.3.2.** Jamiyat mansabdar shaxslar/xodimlarining korrupsiyaga qarshi cheklovlarini qabul qilishga roziligi Jamiyatda kadrlar siyosatini shakllantirish va ta’minalash uchun mas’ul bo‘lgan tarkibiy bo‘linma tomonidan lavozimga kirish/ishga qabul qilingan kundan boshlab 5 ish kunidan ko‘p bo‘lmagan muddatda qayd qilinadi.

**7.3.3.** Jamiyat mansabdar shaxslari tomonidan korrupsiyaga qarshi cheklovlar qabul qilinmagan taqdirda, tegishli choralarini ko‘rish uchun ma’lumotlar Jamiyat Kuzatuv kengashi e’tiboriga yetkaziladi.

**7.3.4.** Ishga nomzodlar yoki Jamiyat xodimlari tomonidan korrupsiyaga qarshi shartlarni qabul qilmaslik ishga qabul qilishni rad etishga yoki mehnat shartnomasini bekor qilinishiga olib keladi.

**7.3.5.** Jamiyatning mansabdar shaxslari/xodimlari tomonidan jinoiy javobgarlikka tortiladigan qilmish va ma’muriy huquqbazarlik belgilari bo‘lmagan hollarda korrupsiyaga qarshi shartlarga rioya qilmaslik mehnat shartnomasini bekor qilish uchun asos hisoblanadi.

### **7.4. Uchinchi shaxs bilan o‘zaro aloqalar**

Jamiyat amaldagi korrupsiyaga qarshi qonunchilik, ushbu Siyosat tamoyillari va talablarini buzadigan yoki Jamiyat uchun ishbilarmonlik obro‘sini yo‘qotish xavfini tug‘diradigan uchinchi shaxslarni jalb qilishdan bosh tortadi.

Uchinchi shaxslar bilan hamkorlikni boshlash yoki davom ettirish to‘g‘risida qaror qabul qilishdan oldin, uchinchi shaxslarni jalb qilish tashabbuskori bo‘lgan Jamiyatning tegishli bo‘linmalari quyidagilarga majburdirlar:

- korrupsiyaning har qanday namoyon bo‘lishi uchun uchinchi shaxslarni quyidagi tartib-qoidalarni bajarish orqali kuzatib borish (shu jumladan, lekin ular bilan cheklanmagan holda):

- korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha o‘z Siyosati va tartiblari mavjudligini, Siyosat talablariga rioya qilishga va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o‘zaro hamkorlikni amalga oshirishga tayyorligini tekshirish;

- ishbilarmonlik obro‘sini va manfaatlar to‘qnashuvining yo‘qligini tekshirish;

- tegishli vakolatli davlat organlari va tashkilotlariga so‘rovlар yuborish yo‘li bilan soxta tadbirkorlik, ishonchlilik, soliq va boshqa qarzlarining mavjudligini, mablag‘lar manbaini, shuningdek, yurisdiksiyasini tekshirish;

- xo‘jalik shartnomalariga korrupsiyaga qarshi qo‘sishimcha shartlar kiritish. Jamiat uchinchi shaxslar tomonidan korrupsiya faktlari aniqlangan taqdirda ular bilan bitimlarni tugatish huquqini o‘zida saqlab qoladi;

- uchinchi shaxslarni ushbu Siyosat tamoyillari va talablari to‘g‘risida xabardor qilish.

**7.4.1.** Jamiat korrupsiyaga qarshi kurashish Siyosati va tartiblarni, shuningdek, odob-axloq standartlarini uchinchi shaxslar tomonidan qabul qilinishini ma’qullaydi.

### ***7.5. Xayriya va homiylik faoliyati***

**7.5.1.** Jamiat ijtimoiy mas‘uliyatlari faoliyatlarni amalgalash oshiradi, buning natijasida u o‘zi joylashgan shahar va tumanlar hamda butun Respublikada xayriya yordamini ko‘rsatishi mumkin.

**7.5.2.** Jamiat xayriya faoliyatining ustuvor yo‘nalishlari sog‘liqni saqlash, ta’lim, ijtimoiy infratuzilmani qo‘llab-quvvatlash va yosh oilalar turmush sharoitini yaxshilash, fan, san’at, madaniyat va boshqa sohalar bo‘lib, ularni qo‘llab-quvvatlash bo‘lib hisoblanadi.

**7.5.3.** Homiylik faoliyati homiylik obyektini hisobga olgan holda Jamiat tomonidan tekshirishdan o‘tgan shaxslar, tashkilotlar va tadbirlarga nisbatan amalgalash oshirilishi mumkin. Homiylik faoliyatining maqsadlari Jamiatning obro‘sini yuksaltirish, sotish hajmini oshirish va boshqalar bo‘lishi mumkin.

**7.5.4.** Xayriya va homiylik faoliyatini amalgalash halollik va oshkoraliq tamoyillariga mos kelishi hamda quyidagi talablarga javob berishi kerak:

muayyan xayriya/homiylik yordamiga O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq ruxsat etiladi va amalgalash oshiriladi;

xayriya/homiylik faoliyati Jamiatning odob-axloq tamoyillariga, uning ichki qoidalariaga mos kelishi kerak;

xayriya/homiylik faoliyati Jamiat uchun ustuvor yo‘nalishlarda amalgalash oshiriladi;

naqd pul yoki boshqa shakldagi xayriya/homiylik yordami qonuniy maqsadda bo‘lishi, hamda xizmat, murojaat, maslahat, harakat yoki harakatsizlik, beparvolik yoki homiylik, huquqlar berish yoki muayyan qarorlar qabul qilish uchun yashirin mukofot bo‘lmasligi va boshqa noqonuniy axloqsiz maqsadlarda qabul qiluvchiga yoki uchinchi shaxslarga ta’sir o‘tkazishga urinish bo‘lmasligi kerak;

xayriya/homiylik yordamini ko‘rsatishdan oldin, Jamiat xayriya/homiylik yordamini oluvchining firibgarlik faoliyati va/yoki korrupsiyaga oid huquqbazarliklar uchun niqob sifatida foydalanilmasligini ta’minalash uchun barcha oqilona va zarur choralarini ko‘rishi kerak;

xayriya/homiylik yordamini oluvchini va xayriya/homiylik yordamini o‘tkazish amalgalash oshirilayotgan tashkilotni dastlabki baholash, shuningdek, ko‘rib chiqilayotgan vaziyat bilan bog‘liq korrupsiya xavfini baholash;

badallar poraxo‘rlikni yashirish tijorat poraxo‘rligi yoki boshqa noqonuniy maqsadlarni yashirish uchun foydalanilmaydi;

barcha zarur ichki va tashqi kelishuvlar olingan;

to‘lovlar qabul qilingan mablag‘larning maqsadga muvofiq ishlatalishini ta’minlash uchun shaffof boshqaruv tuzilmasi bo‘lgan ishonchli tashkilotlarga amalga oshiriladi;

barcha xayriya / homiylik yordamini oluvchilar yoki ular orqali xayriya/homiylilik yordamini o‘tkazish amalga oshirilayotgan tashkilotlar bilan munosabatlar Jamiatning me’yoriy hujjatlari va O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq rasmiylashtirilishi kerak;

xayriya / homiylik yordamini ko‘rsatish shartnomasi korrupsiyaga qarshi moddasi va xayriya/homiylilik yordamidan maqsadli foydalanish bo‘yicha majburiyatlarni belgilaydigan va Jamiatga xayriya / homiylik yordamidan maqsadli foydalanishni tekshirishga imkon beruvchi qoidalarni o‘z ichiga olishi kerak (xususan, olish har bir oluvchidan olingan mablag‘lardan foydalanish to‘g‘risidagi hisobot va ularning kelib tushganligi va sarflanganligini tasdiqlovchi hujjatlar);

xayriya / homiylik yordami Jamiatning buxgalteriya hisobida to‘g‘ri aks ettirilishi kerak;

jismoniy shaxslar foydasiga, naqd pul o‘tkazish yoki xususiy bank hisob raqamlariga mablag‘ o‘tkazish yo‘li bilan xayriya va / yoki homiylik qilish hech qanday istisnosiz taqiqlanadi;

davlat xizmatchilariga, ularning yaqin qarindoshlariga va tegishli shaxslarga xayriya / homiylik yordami ko‘rsatish taqiqlanadi;

tegishli mukofotni nazarda tutmaydigan har qanday boshqa yordam / qo‘llab-quvvatlash (ushbu bandda ko‘rsatilganidan tashqari) taqiqlanadi.

**7.5.5.** Jamiat xodimining xayriya / homiylik faoliyatini amalga oshirishning belgilangan qoidalarni buzgan holda amalga oshirilgan, xizmat majburiyatlarini bajarish bilan bog‘liq bo‘lmagan, tegishli xodim nomidan va uning hisobidan uning shaxsiy manfaatlarini ko‘zlab amalga oshirilgan deb hisoblanadi. Jamiat xodimning tegishli harakatlari uchun javobgar emas.

**7.5.6.** Jamiat tomonidan xayriya / homiylik yordami ko‘rsatish chegaralari har yili O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablarini hisobga olgan holda belgilanadi va kelgusi yil uchun byudjetni tasdiqlash doirasida tasdiqlanadi.

## ***7.6. Siyosiy faoliyatda ishtirok etish va uni moliyalashtirish***

**7.6.1.** Jamiat bevosa yoki bilvosita siyosiy faoliyatda ishtirok etmaydi va siyosiy partiylar, ular bilan bog‘liq tashkilotlar va jamg‘armalarni moliyalashtirmaydi.

**7.6.2.** Jamiat o‘z xodimlarining siyosiy hayotda ishtirok etish huquqini tan oladi, agar bunday faoliyat ushbu Siyosat va Jamiat faoliyatiga zid bo‘lmasa. Jamiat xodimlari o‘z siyosiy faoliyati ularning shaxsiy pozitsiyasi ekanligini hamda Jamiat faoliyati va lavozimi bilan hech qanday aloqasi yo‘qligini ko‘rsatish uchun barcha oqilona va zarur sa’y - harakatlarni (O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid bo‘lmagan holda) amalga oshirishlari shart.

**7.6.2.** Jamiat xodimlariga Jamiatning har qanday manbalaridan, shu jumladan ish vaqt, mulki, uskunalar va Jamiatning ramziy belgilaridan (savdo belgilari, nomi va

boshqalar) siyosiy faoliyatini amalga oshirish yoki qo'llab-quvvatlash uchun foydalanishlari taqiqlanadi.

**7.6.3.** Jamiyat xodimi siyosiy partiya yoki tashkilotning rahbar va taftish organlariga saylangan yoki deputatlikka hamda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari yoki mahalliy davlat hokimiyati organlarining boshqa saylanadigan lavozimlariga nomzod sifatida ko'rsatilgan taqdirda, u mas'ul bo'linmaga ushbu ma'lumotni ko'rib chiqishi va qo'shimcha ko'rsatmalar bershi uchun voqeа sodir bo'lgan kundan boshlab 5 (besh) ish kuni ichida xabar berishi shart.

### **7.7. Buxgalteriya hisobi va qaydlarni yuritish**

**7.7.1.** Jamiyatning barcha moliyaviy operatsiyalari, Jamiyatning buxgalteriya yozuvlari va qaydlari ishonchli va Jamiyatning buxgalteriya hisoblarida aks ettirilgan va hujjatlashtirilgan, shuningdek tekshirish uchun mavjud bo'lgan yetarli darajada batafsil ma'lumotlarga ega bo'lishi kerak.

**7.7.2.** Jamiyat quydagilarga qaratilgan ichki moliyaviy nazorat tartiblarini ishlab chiqgan va joriy qilgan:

- buxgalteriya hisobi yozuvlari amaldagi buxgalteriya (molivayi) hisobot standartlariga muvofiq hisobotlarni tayyorlash imkonini beradigan darajada aniqlik va batafsillik bilan tuzilgan;
- aktivlarni boshqarish huquqi faqat Jamiyat bosh / ijrochi direktorining umumi yoki maxsus ruxsatiga (sanksiyasiga) muvofiq taqdim etilgan;
- aktivlarning qiymati va tarkibini buxgalteriya hisobi muntazam ravishda haqiqiy qiymati va tarkibi bilan taqqoslab, zarur hollarda tegishli choralar ko'rilecek.

**7.7.3.** Jamiyat tomonidan amaldagi qonunchilikda belgilangan muddatlarda to'liq va ishonchli buxgalteriya (molivayi) hisobotlarni yuritish, tayyorlash va taqdim etish uchun mas'ul bo'lgan xodimlar tayinlangan.

**7.7.4.** Ichki moliyaviy nazorat tartib-qoidalariaga rioya qilmaslik yoki bajarmaslikka urinish, Jamiyatning birlamchi hujjatlari va moliyaviy hisobotlarini buzib ko'rsatish yoki soxtalashtirish qat'iyan man etiladi va ushbu Siyosat va tegishli qonun hujjatlarini buzish hisoblanadi.

## **VIII. MANFAATLAR TO'QNASHUVINI OLDINI OLISH VA HAL QILISH**

**8.1.** Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish korrupsiyaga qarshi kurashning eng muhim mexanizmlaridan biridir. Jamiyat manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq xavflarni amalga oshirishning oldini olish va ularni hal qilishga alohida e'tibor qaratadi.

**8.2.** Jamiyatning mansabdor shaxslari va xodimlari o'z xizmat vazifalarini bajarish chog'ida Jamiyat manfaatlaridan kelib chiqib, ularning shaxsiy manfaatlar Jamiyat manfaatlariga zid keladigan holatlar yoki vaziyatlardan qochishlari shart.

Manfaatlar to'qnashuvi (yoki uning yuzaga kelish ehtimoli) yuzaga kelgan taqdirda, Jamiyatning mansabdor shaxslari va xodimlari ushbu ma'lumotni Jamiyatning bevosita rahbari yoki yuqori rahbariyatiga yozma ravishda yetkazishlari shart.

**8.3.** Jamiyat Kuzatuv kengashi va Boshqaruvi mansabdor shaxslar va xodimlarning murojaatiga binoan yoki boshqa manbalardan ma'lumot olgan taqdirda, Jamiyatning

manfaatlar to‘qnashuvini hal qilish Siyosatiga muvofiq o‘z vaqtida tegishli javob choralarini ko‘rishi shart.

**8.4.** Jamiyat affillangan shaxslarning hisobini O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Jamiyatning ichki hujjatlari talablariga muvofiq ravishda olib boradi.

## **IX. KORRUPSIYAGA QARSHI MONITORING, IDENTIFIKATSIYALASH VA KORRUPSIYA XAFVINI BAHOLASH**

**9.1.** Korrupsiyaga qarshi monitoring - Korrupsiyaga qarshi kurashish Siyosatining samaradorligi, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqni qo‘llash amaliyotining holati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni to‘plash, qayta ishlash, umumlashtirish, tahlil qilish va baholash bo‘yicha Jamiyatning faoliyati, shuningdek korrupsiya darajasini Jamiyat tomonidan idrok etish va baholash.

**9.1.1.** Korrupsiyaga qarshi monitoringning predmeti Jamiyat faoliyati hisoblanadi. Korrupsiyaga qarshi monitoring Jamiyat tomonidan o‘z tashabbusi bilan amalgalash oshiriladi, uning natijalari korrupsiya xavfining ichki tahlilini o‘tkazish, shuningdek, korrupsiyaga qarshi madaniyatni shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni takomillashtirish uchun asos bo‘lishi mumkin.

**9.1.2.** Korrupsiyaga qarshi monitoring quyidagilar yo‘llar bilan amalgalash oshiriladi:

    korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha Jamiyatning tarkibiy bo‘linmalari faoliyatini o‘rganish;

    ommaviy axborot vositalarida e’lon qilingan ma’lumotlarni hamda jismoniy va yuridik shaxslarning korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha murojaatlarini o‘rganish;

    korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha sotsiologik so‘rovlari natijalarini ko‘rib chiqish.

**9.1.3.** Korrupsiyaga qarshi monitoring natijalarini umumlashtirgan holda uchun korrupsiyaga qarshi kurashish Agentligiga yuboriladi.

**9.2.** Jamiyat korrupsiya xavflarini muntazam ravishda aniqlaydi va baholaydi, shuningdek, Jamiyatning xavflarni boshqarish bo‘yicha ichki hujjatlariga muvofiq ularni minimallashtirish choralarini ishlab chiqadi.

**9.2.1.** Korrupsiya xavfini aniqlash va baholashning maqsadi korrupsiyaga qarshi qonunchilikka rioya qilmaslik xavfiga duchor bo‘lgan va mansabdor shaxslar va Jamiyat xodimlari tomonidan shaxsiy manfaat olish uchun ham, Jamiyat tomonidan foyda olish uchun ham korrupsiya huquqbazarliklarini sodir etish ehtimoli yuqori bo‘lgan Jamiyat faoliyati va biznes jarayonlarini aniqlashdir.

**9.2.2.** Korrupsiya xavfini aniqlash, baholash korrupsiyaga qarshi monitoring va korrupsiya xavfini ichki tahlil qilish asosida amalgalash oshiriladi.

**9.3.** Jamiyat korrupsiya xavfini, shu jumladan ularning ichki tahlili asosida baholashni amalgalash oshiradi. Korrupsiya xatarlarini ichki tahlil qilish (keyingi matnda - Tahlil) deganda korrupsiya huquqbazarliklarini sodir etishga yordam beradigan sabablar va sharoitlarni aniqlash va o‘rganish faoliyati tushuniladi.

**9.3.1.** Tahlil obyekti Jamiyatning tarkibiy bo‘linmalari faoliyati bo‘lib, quyidagi yo‘nalishlarda amalgalash oshiriladi:

- tarkibiy bo‘linma faoliyatiga ta’sir qiluvchi ichki hujjatlardagi korrupsiya xavfini aniqlash;

- tarkibiy bo‘linmaning tashkiliy va boshqaruv faoliyatida korrupsiya xavfini aniqlash.

**9.3.2.** Tarkibiy bo‘linma faoliyatiga taalluqli ichki hujjatlarda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etishga yordam beradigan ixtiyoriy vakolatlar va normalar aniqlanadi.

**9.3.3.** Jamiyat tarkibiy bo‘limining tashkiliy-boshqaruv faoliyati deganda quyidagi masalalar tushuniladi:

- xodimlarni boshqarish, shu jumladan kadrlar almashinushi;

- manfaatlar to‘qnashuvini hal qilish;

- davlat xizmatlarini ko‘rsatish;

- tarkibiy bo‘linmaning funksiyalarini amalga oshirish;

- tarkibiy bo‘linmaning tashkiliy-boshqaruv faoliyatidan kelib chiqadigan boshqa masalalar.

**9.4.** Har qanday korrupsiya sxemasi uchun xavfga bardoshlikning “nolinchi” darajasi qabul qilinadi va har bir holatda Jamiyat ichki tahlil natijalari bo‘yicha aniqlangan korrupsiya xavfini minimallashtirish choralarini ishlab chiqadi.

**9.5.** Korrupsiya xavfini aniqlash va baholash, ularni minimallashtirish choralarini ishlab chiqish tartibi ushbu Siyosat va Jamiyatning boshqa ichki hujjatlari bilan tartibga solinadi.

## X. KORRUPSIYAGA QARSHI MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH

**10.1.** Korrupsiyaga qarshi madaniyatni shakllantirish - bu korrupsiyaga nisbatan murosasizlikni aks ettiruvchi Jamiyatning baholash tizimini saqlash va mustahkamlash bo‘yicha faoliyatidir.

**10.2.** Korrupsiyaga qarshi madaniyatni shakllantirish Jamiyatdagi har bir xodimning burchi bo‘lib, Jamiyatda tushuntirish ishlari va amaldagi qonunchiligidan nazarda tutilgan boshqa chora-tadbirlar orqali amalga oshiriladi.

**10.3.** Korrupsiyaga qarshi ta’lim - bu axloqiy, intellektual, madaniy rivojlanish va shaxs tomonidan korrupsiyani rad etishning faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish maqsadida amalga oshiriladigan uzluksiz ta’lim va tarbiya jarayoni.

**10.4.** Korrupsiyaga “nolinchi bag‘rikenglik” madaniyatini shakllantirish maqsadida Korrupsiyada korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar va tartib-qoidalar to‘g‘risida xodimlarning xabardorligini oshirishga qaratilgan korrupsiyaga qarshi kurash tizimli ravishda olib boriladi.

**10.5.** Yangi ishga qabul qilingan barcha xodimlar va mansabdor shaxslar asosiy ichki hujjatlar - ushbu Siyosat va Axloq kodeksi bilan tanishishlari shart.

**10.6.** Korrupsiyaga qarshi madaniyatni shakllantirishga qaratilgan ichki me’yoriy hujjatlar Jamiatning internetdagи rasmiy saytida erkin foydalanish uchun joylashtirilgan.

## **XI. KORRUPSIYAGA OID HUQUQBUZARLIKLAR TO‘G‘RISIDA MASLAHAT VA XABARLAR**

**11.1.** Agar Jamiyat xodimlari ushbu Siyosatning mazmuni va asosiy qoidalari bo‘yicha maslahatlashishga muhtoj bo‘lsa, shuningdek har bir xodimga har qanday vaqtida amaldagi korrupsiyaga qarshi qonun hujjatlari buzilishi to‘g‘risida xabar berish imkoniyatini berish uchun Jamiyatda quyidagilar qo‘llaniladi:

- tashabbusni xabardor qilish liniyasi (ishonch telefoni): (90) 998 67 20, +99870 214 19 17;
- Ichki raqam 17-07;
- Telegram ijtimoiy tarmog’ida [UMK Anticor bot](#)
- xabarlarni qabul qilish uchun elektron pochta manzili: [compliance@uzbeksteel.uz](mailto:compliance@uzbeksteel.uz).

**11.2.** Jamiyat ushbu Siyosatni buzganlikda guman qilingan holatlarni Jamiyatda qabul qilingan ichki tergov tartib-qoidalariga muvofiq tekshiradi. Ushbu Siyosat talablarini buzgan Jamiyat xodimlariga mehnat shartnomasi bekor qilinishiga (egallab turgan lavozimidan ozod qilish / ishdan bo‘shatish) qadar intizomiy choralar qo‘llanilishi mumkin.

## **XII. KORRUPSIYAGA OID HUQUQBUZARLIKLAR XIZMAT TEKSHIRUVLARI**

**12.1.** Jamiyat korrupsiyaga nisbatan “nolinchi bag‘rikenglik” madaniyatini qo‘llab-quvvatlab, zudlik bilan zarur tarkibiy bo‘linmalar ishtirokida korrupsiya harakatlari sodir etilganligi va / yoki korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning buzilganligi to‘g‘risidagi barcha asosli shubhalar yoki aniqlangan faktlar bo‘yicha rasmiy tekshiruvlarni tashkil qiladi va o‘tkazadi.

**12.2.** Agar rasmiy tergov natijalariga ko‘ra korrupsiya faktlari aniqlangan bo‘lsa, tergovni yakunlash korrupsiyaning har qanday namoyon bo‘lishiga, shu jumladan mehnat munosabatlarini bekor qilish va materiallarni tegishli vakolatli huquqni muhofaza qilish organlariga topshirishga “nolinchi bag‘rikenglik” tamoyiliga asoslangan tuzatish choralarini ko‘rish hisoblanadi.

**12.3.** Jamiyat har bir alohida holatda korrupsiyaga qarshi qonunchilik va ushbu Siyosat talablarini buzgan xodimlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi belgilangan tartibda va shartlarda ommaviy ravishda tarqatish masalasi yuzasidan mustaqil ravishda qaror qabul qiladi.

## **XIII. KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH SOHASIDAGI O‘ZARO TA’SIRI**

**13.1.** Jamiyat vakolatli davlat organlari va tashkilotlari, shu jumladan huquqni muhofaza qilish organlari, shuningdek uchinchi shaxslar bilan o‘zaro munosabat tamoyili asosida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida hamkorlik qiladi:

**13.1.1.** korrupsiya belgilari bo‘lgan qoidabuzarliklar sodir etilgan holatlar to‘g‘risida axborot berish;

**13.1.2.** korrupsiya belgilari bo‘lgan qoidabuzarliklar yuzasidan tergov o‘tkazishda ko‘maklashish;

**13.1.3.** korrupsiyaga qarshi qonun hujjatlariga rioya etish hamda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish bo‘yicha qo‘shma tadbirlarni ishlab chiqish masalalari bo‘yicha Jamiat faoliyatini tekshirishlarni o’tkazishda muvofiqlashtirish;

**13.1.4.** korrupsiyaga qarshi qonunchilik masalalari bilan bog‘liq vakolatli davlat organlari va tashkilotlarining so‘rovlari bo‘yicha majlislar / yig‘ilishlarda (uchrashuvlarda) ishtirok etish;

**13.2.** Jamiatning davlat organlari va davlat xizmatchilari bilan o‘zaro hamkorligi qat’iy O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi normalariga, ushbu Siyosatda va Jamiatning boshqa ichki me’yoriy hujjatlarida belgilangan qoidalar va talablarga muvofiq amalga oshiriladi.

#### **XIV. JAVOBGARLIK**

**14.1.** Jamiat mansabdar shaxslari va xodimlari korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etganlik uchun O‘zbekiston Respublikasi qonunlarida belgilangan javobgarlikka tortiladilar.

**14.2.** Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etganlik uchun tegishli javobgarlik choralari qo‘llanilgan Jamiatning mansabdar shaxslari va xodimlari Jamiatga yetkazilgan moddiy zararni qoplashdan ozod qilinmaydi, aks holda O‘zbekiston Respublikasi sudining qonuniy kuchga kirgan qarori bo‘yicha javobgarlikka tortiladi.

**14.3.** Ushbu Siyosat talablarini bajarish uchun Jamiatning mansabdar shaxslari, xodimlari va tarkibiy bo‘linmalari o‘z vakolatlari doirasida javobgardirlar.

#### **XV. YAKUNIY QOIDALAR**

**15.1.** Mazkur Siyosat “O‘zmetkombinat” AJ Kuzatuv Kengashi qarori bilan tasdiqlangan kundan boshlab kuchga kiradi.

**15.2.** Ushbu Siyosatga o‘zgartirish va qo‘sishimchalar Jamiat Kuzatuv Kengashining qarori bilan kiritilishi mumkin.

**15.3.** Ushbu Siyosat talablariga rioya qilish Jamiatning barcha xodimlari uchun majburiydir. Siyosat talablarini buzganlikda aybdor shaxslar O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi belgilangan tartibda javobgardirlar.